Tasviriy san'at

3



novda

Education Alliance Finland
CERTIFIED

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

R.R.Ismailova

Tasviriy san'at
3-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

Ta'limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.

TASDIQLANGAN PLAGIATGA QARSHI TASDIQLANGAN

novda edutainment

Toshkent – 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG'ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI BO'LIMI
33-UMUMIY
O'RTA TA'LIM
MAKTABI
№ 84
18 - 10 - 2023

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K 75(075.3)
KBK 85.14ya72
I-81

R.R.Ismailova
Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik/ R.R.Ismailova. – Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 72 b.

Taqrizchilar:

G.Amrulloyeva – Toshkent shahri 205-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;

O.Yevstafeva – MMTV tasarrufidagi PMTIDUM oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-9690-7-0

© R.R.Ismailova
© "Novda Edutainment", 2023










Qadrli o‘quvchilar!

Bu o‘quv yilida tasviriy san’at darslarida ranglarning ajoyib olamini siz bilan kashf qilishda davom etamiz, ranglar uyg‘unligini, rangtasvir janrlarini o‘rganamiz, taniqli rassomlar va rasmlar bilan tanishamiz. Birgalikda turli xil qiziqarli usullarda chizmalar yaratishni o‘rganamiz.

Sizga muvaffaqiyat tilaymiz!







Shartli belgilar:



Savollarga javob bering



Topshiriqni bajaring



Juftlik bo‘lib ishlang



Guruh bo‘lib ishlang



Tinglang



O‘quv yili davomida sizga quyidagilar kerak bo‘ladi:

- 36 varaqli rasm daftari - 1 dona
- Qora rangli karton - 5 ta
- Oddiy qalam - 2 dona
- O‘chirg‘ich - 1 dona
- Flomasterlar - 1 quti
- Rangli bo‘rchalar - 1 quti
- Akvarel bo‘yoqlari - 1 quti
- Guash bo‘yoqlari - 1 quti
- Paxta tayoqchalari - 1 quti
- Mumli sham - 1 dona
- Mo‘yqalamlar to‘plami - 1 dona
- Suv uchun stakan - 1 dona
- Nam salfetkalar - 1 qadoq



Akvarel – suvda yaxshi eriydigan bo‘yoq. “Akva” so‘zi lotin tilidan “suv” deb tarjima qilinadi. Akvarel bilan chizilgan rasm ranglarning tiniqligi, mayinligi va tuslarning musaffoligi bilan ajralib turadi.

Akvarel bo‘yoqlari bilan ishlash qoidalari:

- Agar boshqa rangdagi qurimagan qatlamga bo‘yoq surtilsa, ranglar aralashib ketadi.
- Agar boshqa rangdagi quruq qatlamga bo‘yoq surtilsa, ranglar aralashib ketmaydi.
- Agar ko‘proq suv ishlatilsa, rang ocharadi.

1. Akvarel bo‘yoqlarining qanday xususiyatlari bor?
2. Akvarel bo‘yog‘ining rangini qanday qilib ochartirish mumkin?





Akvarelda guldon chizamiz

1























Suvda eriydigan yelim asosli bo‘yoqlar **“guash”** deb ataladi. Bu so‘z fransuz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “gouache” so‘zi “suvli bo‘yoq” degan ma’noni anglatadi.

Guashning o‘ziga xosliklari:


- Guash ajoyib qoplanish xossasiga ega. Shu sababli guashda bo‘yash orqali ishdagi xatoliklarni bekitish juda oson.
- Bu bo‘yoq hidsiz.
- Guash bilan ishlangan rasmlar tez quriydi.

1. Guashning afzalligi nimada?
2. Guash akvareldan nimasi bilan farq qiladi?
3. Guash va akvarelning qanday umumiy jihatlari bor?



Ikkita bir xil rasm chizing

Bitta rasmni guashda, ikkinchisini akvarelda bo‘yang. Ulardagi ranglarning xossalarini solishtiring va Venn diagrammasini tuzing.





Guashda rasm chizamiz

2
























Boyqush – eng sirli qushlardan biri. Boyqush umuman shovqinsiz ucha olish qobiliyati bilan odamlarni hayratda qoldiradi. U ko‘plab ertak, afsona va rivoyatlarda uchraydi. Ayrim xalqlarda bilim va donolik ramzi, ayrimlarida vayronalik va noxushliklar darakchisi hisoblanadi.





Boyqush

3























Rang hayotimizda juda muhim rol o‘ynaydi. Rangning xususiyatlarini fiziklar, matematiklar, shifokorlar va, albatta, rassomlar o‘rganadilar.

Oq, qora va kulrangdan tashqari barcha ranglar **xromatik** ranglar deyiladi. Oq, qora va kulrangning barcha tuslari **axromatik rang** deb ataladi. Kulrang oq va qora ranglarni aralashtirish orqali hosil qilinadi.

Xromatik ranglar asosiy va tarkibiy ranglarga bo‘linadi.

Asosiy ranglar: sariq, qizil, ko‘k. Ularning asosiy ranglar deb atalishiga sabab, ularni bo‘yoqlarni aralashtirish orqali hosil qilib bo‘lmaydi.




Tarkibiy ranglar: olovrang, yashil, binafsharang. Ushbu ranglarni asosiy ranglarni aralashtirish orqali hosil qilish mumkin.






Shuningdek, ranglar sovuq va issiq ranglarga bo‘linadi.



1. Issiq rang deganda ko‘z oldingizga nimalar keladi?
2. Sovuq rang deganda ko‘z oldingizga nimalar keladi?

Ranglar halqasida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan ranglar kontrast hisoblanadi. Ushbu ranglar bir-birini kuchaytiradi.





Yonma-yon joylashgan ranglar yaqin ranglar deb ataladi.


Qaysi ranglar kontrast ranglar hisoblanadi? Qaysi ranglar bir-biriga yaqin deb ataladi? Misollar keltiring.



Ranglar halqasini chizing









Palitrada qizil va sariq ranglarni aralashtiring:

- teng miqdorda;
- bir qismi sariq va ikki qismi qizil;
- bir qismi qizil va ikki qismi sariq.



Palitrada ko‘k va qizil ranglarni aralashtiring:

- teng miqdorda;
- bir qismi qizil va ikki qismi ko‘k;
- bir qismi ko‘k va ikki qismi qizil.



Palitrada sariq va ko‘k ranglarni aralashtiring:

- teng miqdorda;
- bir qismi ko‘k va ikki qismi sariq;
- bir qismi sariq va ikki qismi ko‘k.







Puantilizm – nuqtalar yordamida chizish texnikasi. Bu nom balerina poyabzali nomidan kelib chiqqan. “Point” so‘zi fransuz tilidan tarjima qilinganda “nuqta” degan ma’noni bildiradi. Puantilizm texnikasida juda yorqin va kontrast peyzajlar yaratish mumkin. Ushbu uslubda ishlaganda rassomlar bo‘yoqdan nuqtalar qo‘yib chiqadilar, ammo tasvirga uzoqroqdan qaralganda, ranglar qorishib, yaxlit manzara hosil bo‘ladi.



Nuqtalar yordamida chizamiz

4

























Grafika – tasviriy san'atning bir turi bo'lib, unda tasvir chiziqlar, konturlar, shtrixlar va dog'lar yordamida hosil bo'ladi. Odatda, rasm bitta rangda chiziladi. "Grafika" so'zi "yozaman, chizaman" degan ma'nolarni anglatadi.

Grafika tasvirini qalam, ko'mir, bo'r, tush, ruchka, flomaster bilan yaratish mumkin.

Shtrix – bu chizgi, qisqa chiziq. Shtrixlar ingichka va qalin, uzun va qisqa, egik va kesishgan bo'lishi mumkin.

Shtrixlashni turli yo'llar bilan bajaring



Gorizontal shtrixlar



Vertikal shtrixlar



Egik shtrixlar



Kesishgan shtrixlar

Rasm chiziq bilan boshlanadi. Chiziq rasmning kontur shaklini hosil qiladi.

Chiziqlar qanday bo'ladi? Sizningcha, chiziqlar kayfiyatni ifodalashi mumkinmi?



Shaklli guldon

5

























Grafik natyurmort

6


























Pastel ranglarda chizamiz

7


























Loyiha uchun quyidagilarni tayyorlang:

- she’r,
- musiqiy jo‘rlik,
- kuz mavzusida ko‘rgazmali rasmlar, suratlar yoki fotosuratlar qatori.

Abdulla Oripov

Do‘rmonda kuz

Bog‘imda mushuklar qoldirgan edim,
Daydib ketibdilar bechoralarim.
Barglarin to‘kmoqda daraxtlar qadim,
U bilan to‘kilar ezgu dardlarim.

Senga salom deyman so‘ng bor, behijon,
Endi yerga yotding, soyabonim barg.
Nechun o‘ksik qolding, chinor, jonajon,
Bog‘larga nahotki keldi bodi marg.



F.Shopen, “Kuz valsi”

8

Nurulloh Oston

Yana kuz keldi



Buloqlar zilol,
Charaqlar hilol.
Shivirlab shamol –
Yana kuz keldi.

Xazonlar o'ynar,
Turnalar kuylar.
Boshlandi to'ylar –
Yana kuz keldi.



Yo'laklar xomush,
Yurakda yonish,
Chechakda nolish –
Yana kuz keldi.

Non to'la tandir,
Bulutlar sang'ir,
Qor hidi anqir –
Yana kuz keldi.





A.Vivaldi, "Kuz" 9

An’anaviy o‘zbek naqshlarini milliy kashtalarda, yog‘och o‘ymakorligida, sopol buyumlar, milliy matolarda, binolardagi mozaikalarda uchratish mumkin.

Naqsh turlari bezak elementlariga qarab ajratiladi:

- geometrik nuqta, chiziq va shakllardan iborat naqshlar;
- o‘simlik barglari, gullari, mevalaridan iborat naqshlar;
- zoomorf, ya’ni hayvonlarning rasmlari aks etgan naqshlar.

Kashtachilik buyumlari va sopol idishlarda ko‘pincha anor guli va mevalari – anorgul, bodom guli – bodomgul, garmdori – qalampirnusxa, daraxt barglari – barg va paxta naqshlari uchraydi.







Bodomgul naqshini chizamiz

10

























Naqsh tasviriy san'atda muhim o'rin tutadi. Har bir xalqning o'ziga xos naqshlari bor. Naqshlar xalqning madaniyati va tarixi bilan uzviy bog'liq.

Naqshdagi ritm naqsh elementlarining ma'lum ketma-ketlikda kelishidir.

Dunyo xalqlari naqshlarini ko'rib chiqing. Naqsh turini aniqlang.





Osiyo xalqlari naqshlari





Skandinaviya naqshlari





Afrika naqshlari





Shimoliy va Janubiy Amerika naqshlari





Slavyan xalqlari naqshlari


"Simmetriya" deb biror narsaning har ikki tomondan bir xil joylashishiga aytiladi. Simmetriya qadim zamonlardan beri go'zallik shartlaridan biri bo'lib kelgan. Sivilizatsiya boshidan odamzod simmetriya haqida tasavvurga ega edi, o'z inshootlarini uning qonunlariga ko'ra qurdi, uy-ro'zg'or buyumlarini yasadi. Ammo tabiatda mutlaq simmetriya va asimmetriya deyarli yo'qligini bilishimiz kerak. Masalan, kiyikning shoxlariga qarasak, bir qarashda ular simmetrik bo'lib tuyuladi. Yaqindan qaraganda esa, albatta, ba'zi farqlarni topamiz.

Kompozitsiyalar simmetrik va asimmetrik bo'lishi mumkin. Rassomlar ko'pincha rasmning simmetrik qurilishidan foydalanadilar. Simmetrik kompozitsiyada predmetlar rasmning markaziy o'qiga nisbatan deyarli ko'zgudagidek aks etadi. San'atdagi simmetriya hayotiy haqiqatga asoslangan. Masalan, odamning qomati, kapalak, qor parchasi va boshqalar simmetrik yaralgan.


Kapalak andazasini tayyorlang

1


2




3




4



5



6





Atrofingizdan iloji boricha ko'proq simmetrik narsalarni toping.

Rassomlar rasm chizishda to'liq bo'lmagan simmetriya usulidan foydalanadilar. Masalan, bulutlar va daraxtlar ko'l, daryo yoki hovuz suvlari yuzasida ko'zguda aks etgandek chiroyli tasvirlanadi.

Suvdagi aksni chizish uchun quyidagilarni bilish muhim:

- suv yuzasi – suv tepasidagi hamma narsani aks ettiruvchi ko'zgu;
- suv yuzasi har doim ham sokin turmaydi, unda katta-kichik to'lqinlar yoki yengil mavjlar bo'lishi mumkin;
- suvning rangi yo'q, shaffof, shuning uchun suv nimani aks ettirsa, shu rangga kiradi.

Gradiyent kapalak

11

























Dekorativ peyzaj

12

























Ufq – osmon bilan yerni bir-biridan ajratib turuvchi chiziq. Ufq chizig‘i baland, o‘rta va past bo‘lishi mumkin.

Ufq chizig‘i har doim odamning ko‘z qarashi darajasida bo‘ladi.


Ufq chizig‘i unga qarayotgan odamning holatiga qarab o‘zgaradi.

Ufq chizig‘ini rasmning yuqorisi yoki pastida tasvirlash rassomga bog‘liq.

Peyzajda pastki ufq chizig‘i syujetga kenglik va erkinlik beradi.

Agar rassom ufq chizig‘ini balandroqda tasvirlasa, u yuqoridan qarayotgandek tuyuladi.

Rasmlarda ko‘pincha tik turgan odamning ko‘z qarashlari darajasidan o‘rta ufq chizig‘i tasvirlanadi. Biz rasmga qarab, tasvirni xuddi hayotda ko‘rayotgandek bo‘lamiz.



Oltin kuz

13

























Qishki uychalar

14




1

2




3




4



5




6



7



8



9



10



11



12



13



14



15



16



17



18



Interyer – bu xonaning umumiy ichki ko‘rinishi yoki uning alohida qismlari. Bunga mebel, dekorativ bezaklar va xonadagi barcha asosiy jihozlar kiradi. “Inter” so‘zi fransuz tilidan “ichkarida” deb tarjima qilinadi. Interyer uchta o‘lchovga ega: balandlik, kenglik, chuqurlik.

Interyerni chizish uchun ufq chizig‘i, birlashish nuqtasi va perspektiva qoidalariga amal qilish muhim.

Perspektiva – tekis sathda chuqurlik va kenglikni tasvirlashga oid aniq fan.

Perspektivaning ikki turi bor: chiziqli va muallaq. Muallaq perspektivada obyekt uzoqlashishiga qarab rang o‘zgaradi.

Chiziqli perspektiva – bu qonun-qoidalar asosida tasvirlash:

- predmet qanchalik yaqin bo‘lsa, u shunchalik katta ko‘rinadi;
- uzoqlashgan sari predmetlar kichrayadi;
- uzoqlashayotgan barcha chiziqlar so‘nggi nuqtasida birlashadi.


So‘nggi nuqta – bu perspektivani yaratish vositasi. Perspektiva parallel chiziqlarni so‘nggi nuqtaga olib keladi.




Xonangizning interyerini chizing. Chiziqli perspektivadan foydalanib, narsalarni to‘g‘ri joylashtiring.

Ufq chizig‘i yordamida xonani chizish


1




2




3



4



5



6



Yorug‘lik va soya – tasvirda predmet hajmini ko‘rsatishga yordam beradigan muhim ifoda vositasi.

Shu’la – eng yorqin qism.


Yorug‘lik – predmetning yoritilgan yuzasi.

Yarimsoya – yorug‘likdan soyaga o‘tish.

Soya – eng qorong‘i qism.

Refleks – aks ettiriladigan yorug‘lik. Bu qism soyadan ochroq.


Tushayotgan soya – predmetning soyasi.






Sochtasma (lenta) chizamiz

1



2



3



4



5



6



Olma tasviri afsonalarda, turli xalqlar ertaklarida, badiiy asarlarda ko'p uchraydi. Olma ko'pincha sevgi, yoshlik, go'zallik, salomatlik va yaxshilik ramzi bo'lib xizmat qiladi. Ertaklarda pishib ulgurmagan, oltin, sehrli, o'rmon olmalari uchraydi.

Rassomchilikda olma tasviri uchraydigan ko'plab rasmlar mavjud.

Rassomlar yoshlik va go'zallikka urg'u berish uchun qo'lida olma ushlagan go'zal ayollarning portretlarini chizishadi.



Hajmli olmalar

15

























Natyurmort – jonsiz narsalar tasvirlangan rasm. Bu mevalar, guldastalar solingan turli xil guldonlar, musiqa asboblari va kitoblar bo‘lishi mumkin. Rassomlar o‘z natyurmortlarida predmet dunyosining go‘zalligini shakl, hajm va rang orqali yetkazib berishga intilishadi.











Olma to‘la savatcha

16























“Olmaxon kuylar qandoq,
Va chaqar oltin yong‘oq”.

A.S.Pushkinning “Shoh Saltan ertagi” asarida olmaxon haqida shunday satrlar bor. Rassomlar olmaxonni yoqimtoyligi, qalin momiq dumi va uzun quloqlari uchun sevib tasvirlashadi.

Olmaxon

17



















Tipratikan bolalarning ko‘plab sevimli multfilmlari, ertaklari va she’rlari qahramonidir. Ertaklarda tipratikan odatda ijobiy, ochiq, halol, do‘stona fazilatlarga ega qahramon bo‘ladi. Tipratikan xavf tug‘ilganda o‘tkir ignalarini yoyib, koptokka o‘xshab o‘ralib olish xususiyati uchun o‘zini himoya qilish ramzi hisoblanadi.

Tipratikan

18



















To‘tiqush – juda ajoyib qush. Uning ayrim turlari odamga taqlid qilib gapira olishi bilan ajralib turadi. Lekin bu uning yagona fazilati emas. To‘tiqush aqlli bo‘ladi. U ritm va ohangni kuchli his etadi. Shuning uchun musiqaga mos harakat qilib, xuddi raqsga tushayotgandek ko‘rinadi.



Qalamda chizilgan to‘tiqush

19


















Tovusning vatani – Hindiston. Tovus – betakror ko‘rinishga ega, chiroyli dekorativ qush. Hindistonda Quyosh ramzi hisoblanadi. Rassomchilikda tovus tasviri xitoy va yapon rassomlarining asarlarida ko‘p uchraydi. Xitoyda qadimda imperator tovus patini sovg‘a qilish orqali o‘z marhamatini bildirgan.



Akvarelda chizilgan tovus

20

















Delfin – eng aqlli va mehribon jonivorlardan biri. Delfinlar cho'kayotgan odamlarni qutqargani haqida hikoyalar qadim zamonlardan ma'lum. Qadimgi yunon afsonalaridan birida iste'dodli musiqachi Orfeyning qutqarilishi haqida hikoya qilinadi.

Hayotiy voqea esa 2003-yilda mashhur rejissyor bilan sodir bo'lgan. Hardi Jons Yaponiyada delfinlar haqida film suratga olayotgan edi. U videokamera bilan suv ostida suzayotganda, qarshisida akula paydo bo'ladi. Shunda uchta delfin yordamga kelib, akulani quvib yuboradi.



Suvosti dunyosi

21

























Marina – dengiz ko‘rinishini yoki suvosti dunyosini aks ettirgan tasviriy san’at janri. “Marina” so‘zi fransuz tilida “dengiz” degan ma’noni bildiradi

Suvosti dunyosi – hayratlanarli va sirli dunyo. Inson sayyora yuzasini okean tubidan yaxshi o‘rgangan. Suv ostida turli xil hayvonlar va baliqlar yashaydi.

Suvosti dunyosining go‘zalligi va sirlari har doim rassomlar va yozuvchilarni o‘ziga jalb qilgan. Bu mavzu Xans Kristian Andersenning “Suv parisi” ertagida go‘zal tasvirlangan.



Dengiz toshbaqasi

22

























Portret – bir inson yoki odamlar guruhi tasvirlangan rasm. Portretda odam ko‘ksigacha, beligacha, son qismigacha, tizzalarigacha yoki bo‘yi baravar tasvirlanishi mumkin.

Portretlar tashqi ko‘rinishi bo‘yicha har xil bo‘ladi:

- **avtoportret** – rassom o‘zini ko‘zguga qarab yoki esida qolgancha tasvirlagan rasm;
- kamida uchta qahramondan iborat **guruh** portreti;
- **oilaviy portret** – oila tasviri;
- **ikki kishilik portret** – ikki kishining tasviri;
- **kamera portreti** – qorong‘i fonda beligacha, ko‘ksigacha yoki yelkasigacha tasvirlangan shaxs;
- **tantanali portret** – bo‘yi baravar tasvirlangan odam;
- **bel portreti** yoki **qo‘llar bilan olingan portret** – odamning bel qismigacha tasviri. Odatda tasvirga qo‘llarni kiritish uchun ishlatiladi.








Do‘stimning portreti

23























Loyiha uchun quyidagilarni tayyorlang:

- bahor mavzusidagi she’rlar, adabiy asarlar yoki o‘zingiz yozgan she’rlar,
- musiqiy jo‘rlik, bahor mavzusidagi rasmlar, suratlar yoki fotosuratlar to‘plami.

F.Shopen, “Bahor valsi” 24



P.Chaykovskiy, “Gullar valsi” 25



Pol Moria, "To'rg'ay"

26

Multiplikatsiya – birin-ketin sodir bo'ladigan harakatlar tasvirini suratga olish orqali film yaratish.
Rassom-multiplikatorlar qahramonlarning har bir harakatini chizib chiqadilar.

Quyidagi rasmlar qaysi multfilmga chizilgan? Bu ertak qahramonlarini sanab bering.






Sevimli multfilmingiz qahramonini chizing



Ertakdagi mushuk

27























Mum bilan akvarelni aralashtirilsa, yana bir chizish texnikasi paydo bo‘ladi. Ushbu texnikada rasm chizish uchun mum qalamchalar yoki sham ishlatiladi. Bunda qog‘ozga mumdan chiziqlar tortilib, ustidan akvarelda bo‘yaladi. Akvarel mumni to‘liq yopmaydi va tovlanib turadigan ajoyib tasvir hosil bo‘ladi. Ushbu uslubda gullar, baliqlar, tungi manzara chizilsa, ayniqsa, chiroyli chiqadi.

Lekin bir narsani esda tutish kerak: mum chiziqlarni bir surgandan keyin o‘chirib bo‘lmaydi.

1. Mum va akvarel bo‘yoqlarida chizish texnikasining qanday noodatiy jihatlari bor?
2. Mum va akvarel bilan rasm qanday chiziladi?
3. Ushbu noodatiy texnika yordamida qanday rasmlar chizish mumkin?





Gullar tasvirini chizish uchun quyidagilar kerak bo‘ladi:

- rasm daftari yoki oq qog‘oz
- qalam
- sham yoki mumli qalam
- akvarel bo‘yoq
- mo‘yqalam
- suvli stakan



Bahoriy o‘tloq

28























Grattaj – fransuzcha “gratter” so‘zidan olingan bo‘lib, “qirish, tirnash” degan ma’noni anglatadi.

Grattaj qiziqarli grafik texnika bo‘lib, bunda guash bilan qoplangan varaqni o‘tkir tig‘li narsalar bilan tirnash orqali rasm chiziladi. Grattajni qog‘oz yoki kartonda amalga oshirish mumkin. Asosiy rang qora, oq yoki rang-barang bo‘lishi mumkin.

Birinchi qatlam mumli qalamchalar, qalamlar yoki akvarel bo‘yoqlar bilan amalga oshirilishi mumkin.

1. Grattaj nima?
2. Grattaj texnikasida rasm chizish uchun qanday materiallardan foydalanish mumkin?





Grattaj texnikasidan foydalangan holda tasvir yaratish uchun quyidagilar kerak bo‘ladi:

- rasm daftari yoki oq qog‘oz
- akvarel bo‘yoqlar
- mo‘yqalam
- suv bilan stakan
- sham
- qirrali cho‘pcha
- guash

Grattaj

29

























20-asrda inson tomonidan koinotning zabt etilishi jahon sivilizatsiyasining muhim burilish nuqtalaridan biri bo'ldi. Bu, eng avvalo, turli mamlakatlar yetakchi olimlarining birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasidir. Ilm-fanning bu ulkan yutug'iga O'zbekiston ham o'zining bebaho hissasini qo'shgan.

Vladimir Aleksandrovich Jonibekov – kosmonavt va ijodkor shaxs. Maktabda o'qigan paytida Vladimir rasm chizish va astronomiyaga qiziqardi. Maktabni tamomlab, Toshkentdagi Suvorov harbiy bilim yurtida tahsil olgan.

Kosmonavtlik kasbini tanlaganlar – chinakam qahramonlar. Fazoga uchganlar ajoyib his-tuyg'ularga ega bo'lib, betakror tajriba orttiradilar. Vladimir Jonibekov o'z taassurotlarini chizgan rasmlarida ifodalagan.

Jonibekov koinotga ikkinchi parvozini amalga oshirgach, Toshkentda "Kosmos" kompozitsiyasi o'rnatilgan. "Kosmonavtlar" metro bekatida esa bu fazogir tasvirlangan sopol aylana bezak bor.







Koinotga sayohat

30























Ip bilan chizamiz

Tasviriy san'atda juda ko'p qiziqarli va noan'anaviy chizish texnikalari mavjud. Nitkografiya – bu bo'yoqli ip bilan chizishdir. Ip buralib, natijada nafis va noodatiy tasvir paydo bo'ladi. Bo'yoqli ip yordamida ko'pincha gullar, kapalaklar, suvosti yoki sehrli manzaralar chiziladi. Bunda turli xil iplardan: to'qima jun, tikuv iplari, hatto ingichka mato ipidan foydalanishingiz mumkin.

1. Qanday noan'anaviy rasm chizish texnikalarini bilasiz?
2. Ip yordamida qanday tasvirlar hosil bo'ladi?
3. Rasm chizish uchun qanday ipdan foydalanish mumkin?







Ip bilan chizamiz

31























Rahim Ahmedov – O‘zbekiston xalq rassomi, naqqosh va pedagog. Bu iste’dodli ijodkor o‘z asarlarida Vatanimiz tabiatining betakror go‘zalligini, xalqimizning azaliy an’analari va milliy qadriyatlarini yuksak mahorat bilan tasvirlagan, mehnatkash va bag‘rikeng insonlarning obrazlarini yaratgan.



Rassomlarning asarlarini ko‘rib chiqing. Rang sxemasiga, ufq chizig‘iga, perspektivaga, kompozitsiya va janrga e’tibor bering.









Quyoshning chiqishi

32

























Quyoshning botishi

33























www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija

1-dars.	Akvarel	6
	Akvarelda guldon chizamiz	7
2-dars.	Guashda rasm chizamiz	8
3-dars.	Boyqush	10
4-dars.	Rang	12
5-dars.	Puantilizm	16
6-7-darslar.	Grafika	18
8-dars.	"Kuz jilvalari" loyihasi	22
9-dars.	O'zbek milliy naqshlari	24
10-dars.	Ornament	26
11-12-darslar.	Tabiatda va san'atda simmetriya	28
13-dars.	Ufq chizig'i	32
14-dars.	Qishki uychalar	34
15-16-darslar.	Interyer	36
17-dars.	Yorug'lik va soya	38
18-dars.	Olma chizamiz	40
19-dars.	Natyurmort	42
20-dars.	Hayvonlarni chizamiz	44
21-dars.	Qushlarni chizamiz	46
22-dars.	Delfinlar	48
23-dars.	Dengiz hayoti	50
24-dars.	Do'stimning portreti	52
25-dars.	"Bahor jilvalari" loyihasi	54
26-dars.	Multiplikatsiya	56
27-dars.	Mum bilan chizamiz	58
28-dars.	Grattaj	60
29-dars.	Koinotga sayohat	62
30-dars.	Ip bilan chizamiz	64
31-dars.	O'zbekiston rassomlari	66
32-dars.	Quyoshning chiqishi va botishi	68

Rasmlar ro'yxati:

S. Bessonov, "Suvosti dunyosi"
P. Konchalovskiy, "Savatdagi nastarin"
I. Ignatov, "Quymoqli natyurmort"
T. Grenland, "Uzum"
R. Ahmedov, "Natyurmort"
V. Serov, "Qiz va shaftoli"
S. Yarasheva, "Sakura"
P. Benkov, "Dugonalar"
K. Stefan, "Provansdagi lavanda dalalari"
V. Frolov, "Ugam"
S. Mamedova, "Kungaboqar", "Kuzgi natyurmort", "Baliqcha"
R. Bateman, "Qutb boyqushi"
A. Zakalskiy, "Olmalar"

Darslik holati haqida ma'lumot

№	O'quvchining F. I. Sh	O'quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K 75(075.3)
KBK 85.14ya72
I-81

R. R.Ismailova
Tasviriy san'at. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik / R.R.Ismailova. – Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023. – 72 b.

Ismailova Ra'no Rustamovna

Tasviriy san'at
3-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

Muharrirlar:	*M.Mirsolihov, M.Azizova, Sh.Muslimova*
Badiiy muharrir	*A.Sobitov*
Musahhih	*X.Serobov*
Rassomlar:	*R.Ismailova, M.Azimova, V.Frolov, T.Daminov*
Kompyuterda sahifalovchi	*R.Mirakov*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 07.07.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60×84/8. Kegli 16 n/shponli. "Arial" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m² qog'oz. Shartli b.t. 9. Hisob-nashriyot t. 0,8. Adadi 626 983 nusxa. Buyurtma raqami 23-333. "O'zbekiston" NMIUda chop etildi.